

MUHTORIYATINING TUGATILISHI VA UNING TURKISTON XALQI UCHUN OQIBATLARI

Bekmurodov Doniyor

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix Fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali atigi 72 kun yashagan Turkiston muxtoriyatining tugatilishi va uning Turkiston xalqi uchun qanday oqibatlarga olib keldi savoliga qisqacha bo'lsada to'xtalib o'tdik.

Kalit so'zlar: Turkiston Muxtoriyati, muvaqqat, bolsheviklar, mustamlaka, sovet, muxtoriyat, kommunistik, komitet, hukumat, federatsiya, muhujir

Turkiston Muxtoriyati hukumatining xalq orasida obro'-e'tibori va nufuzi oshib borishi bolsheviklarni tashvishga solib qo'ydi. Turkiston o'lka Sovetlarining IV syezdi (1918 yil 19-26 yanvar) Turkiston Muhtoriyati hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari holatda deb hisobladi, hatto hukumat a'zolarini qamoqqa olish haqida qaror qabul qildi.¹ Bu bilan sovet xukumati yerli xalq milliy demokratik davlatchiligining dastlabki tajribasi bo'lgan Turkiston Muxtoriyatini qonga botirib tugatishga qaror qildi. Syezd tugaganidan keyin uch kun o'tgach, 1918 yil 30 yanvarda Turkiston o'lkasi XKS muxtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlar boshladi.

1-fevralda (yangi hisob bilan 1918 yil 14 fevralda) Farg'onan viloyatida harbiy holat e'lon qilindi. 1918 yil 29-30 yanvarda Qo'qonda favqulodda vaziyat mislsiz darajada keskinlashdi. Muhtoriyatchilar oq gvardiyachilar yordamida inqilobiy qo'mita joylashgan Qo'qon qal'asiga hujum qilish bilan birga, telefon stansiyalarini ham egallab oldilar. Biroq, harbiy inqilobiy qo'mita telegraf va telefon aloqasi uzilgunga qadar voqealar haqida Toshkentga xabar berib bo'lishgan edi.² 29-yanvardan 30-yanvarga o'tar kechasi sovet hokimiyati tomonida turgan harbiy qismlar Qo'qondagi muxtor respublika hukumati bilan kurashni boshlab, mohiyatan, Rossiyada birinchi bo'lib fuqarolar urushini boshladilar.³ Harbiy inqilob qo'mitasi Muxtoriyat hukumatidan ikki ming kishilik qo'shinni darhol quolsizlantirishni va tarqatib yuborishni talab etish haqida qaror qabul qiladi.⁴ Bolsheviklar talabi javobsiz qoldirilgandan so'ng, inqilobiy qo'mita Muxtoriyat a'zolarini hibsga olish to'g'risida qaror qabul qiladi. Ana shunday bir sharoitda 30 yanvarda Qo'qon ishchi va askar

¹ A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent.: "Ma'naviyat", 2000. –B.153.

² Jo'rayev M., Nurullin R. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida 2-kitob T:-"Sharq", 2000.-B.63.

³ A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent.: "Ma'naviyat", 2000. –B.146.

⁴ A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent.: "Ma'naviyat", 2000. –B.147.

deputatlari Sovetining majlisi bo'ldi. Unda Turkiston Muxtoriyatini ag'daruvchi organ-inqilobiy qo'mita (revolyutsion komitet) tuzildi.

Uning raisligiga bolshevik Ye.G.Babushkin saylandi. Inqilobiy qo'mita tarkibiga tub yerli aholi vakillaridan kiritilmadi. Qo'mita o'z qo'lida cheklanmagan hokimiyatni mujassamlashtirdi, unga katta vakolatlar: favqulodda choralar ko'rish, hamma narsani sovet hokimiyatini himoya qilishga bo'ysindirish va safarbar etish xuquqi berildi. Inqilobiy qo'mita oldidagi eng asosiy bosh vazifa muxtoriyat hukumatini tugatish, shahar aholisini qurolli kuch bilan sovet hokimiyatini tan olishga majbur qilish, «Inqilobiy tartib» o'rnatishdan iborat edi. Bu esa ommaviy qatog'onlar uchun keng yo'l ochib berdi. Inqilobiy qo'mita ishni Yevropalik ishchilar va temir yo'lchilarni qurol bilan ta'minlashdan boshladi. Ayniqsa bolsheviklarning Qo'qon shahridagi arman millatiga mansub dashnoqlarni: baqqollar, sartaroshlar va vino sotuvchilarni qurollantirishlari ommaviy qirg'inlarni yanada dahshatli tus olishlariga sababchi bo'ldi. Toshkent, Skobelev, Andijon, Namangan va boshqa shaharlardan harbiy madad so'rab murojaat qilindi. Ayni paytda, Turkiston o'lkasi XKS Toshkent, Namangan, Samarqandda shahar Dumalarini tarqatdi. Sobiq general-gubernator kanselyariyasini tugatdi, «Burjua» gazetalarini yopdi. Paxta zahiralarini musodara etdi, neft qazib chiqarish, baliqchilik sanoati, «Xiva» kemachilik jamiyati, barcha bosmaxona va tipografiyalarda milliy lashtirishni o'tkazdi, FK (favqulodda komissiya) tashkil etdi, din davlatdan va maktab dindan ajratilganligini e'lon qildi.⁵ «Qo'qon musulmon aholisi rus va armanlarni qirg'in qilib, shaharning yevropaliklar yashaydigan qismini vayron etdi», – degan atayin tarqatilgan mish-mishlar bolshevistik sovetlarga sodiq harbiy bo'linmalar orasida musulmonlarga qarshi qahr-g'azab uyg'otishga sabab bo'ldi. Bu bilan bolsheviklar o'zlarining ommaviy qatag'onliklarining amalga oshirishida qizil armiya harbiy bo'linmalaridan bemalol foydalanish uchun yo'l ochdilar. Chunki Qo'qon xukumatida bunday katta harbiy kuch yo'q u bor-yo'g'i bir necha harbiy qismlar va qipchoq otliq soldatlariga tayanardi. Mustafo Cho'qayning xotirlashicha, 31-yanvarda bolsheviklarning ultimatumini tekrshirib turganlarida ularni miltiqdan o'qqa tutishadi. Ultimatumda bayon etilgan ikki soat 20 daqiqada o'tib ketardi. Bu ularning shartnomaga xilof ish qilganliklarini anglatar edi. Ana shu tariqa, Qo'qon shahrida bolsheviklar maxalliy aholini qirib tashlashdan iborat ommaviy qatog'onlarni boshlab yubordilar. Turkiston o'lkasi XKS Turkiston Muxtoriyatiga chetdan keladigan har qanday yordamni oldini olish choralarini ko'rdi. 1918 yil 14 fevralda butun Farg'ona vodiysida harbiy holat e'lon qilindi. Farg'ona temir yo'lida esa qamal holati joriy etildi. Albatta bunday og'ir sharoitda Turkiston muhtoriyati o'zini-o'zi himoya qilishga ojiz edi. Muxtoriyatchilar boshlangan dahshatli qirg'inga qadar tinch vositalar yo'li bilan hokimiyatni qo'lga olishga ishonar edi. Shunga

⁵ A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent.: "Ma'naviyat", 2000. –B.147.

qaramay, muxtoriyatchilar sovet qo'shinlari hujumini uch kun qaytardi. Ular qo'lga tushgan narsalar-tayoq, bolta, ketmon, oshpichoq, toshlar bilan qurollangan edi. «Turkiston-turkistonliklar uchun!» shiori bilan chiqqan muxtoriyatchilar muqaddas urush-g'azovat e'lon qildilar va viloyatlardan yordam kudilar. Biroq, afsuski, muxtoriyatchilar boshqa joylardan yetarli darajada harbiy yordam olishmadi.⁶ Muxtor xukumat vaziyatning nihoyatda og'ir ekanligini hisobga olib so'nggi va oxirgi imkoniyatni ishga soldi hamda bolsheviklar bilan boshlangan muzokara tashabbuskori bo'ldi. Bu muzokora 17 fevralda boshlandi. 17 – 18 fevralda muzokaralar davom etdi.⁷ Muzokarada muxtoriyatchilar quyidagi talablarni o'rtaqa qo'ydilar: 1. Shaharni birgalikda boshqarish va uning tarkibida muxtoriyatchilarning ko'proq vakillari bo'lishini ta'minlash. 2. Harbiy qa'lani shu organning nazorati ostiga olish. 3. Militsiyadan boshqa barcha kuchlarni qurosizlantirish. O'lkada sovet hukumatining shariatga zid dekretlarini bekor qilish.

Ammo inqilobiy qo'mita Muxtoriyatchilarning bu takliflarini rad etdi. Muxtor hukumat qanday bo'lmasin qon to'kmaslik uchun harakat qildilar. Harbiy vazir polkovnik M. Chanishev inqilobiy qo'mitaga ultumatum qo'yib, soat 4 gacha qa'lani topshirishni talab etdi. Ammo musulmon ishchi va dehqonlar konferensiyasi qatnashchilari ultumatumni qaytarib olishni talab qildilar.

«Sho'roi ulamochi»lar o'z tarafдорлари bilan bunga norozilik bildirib, ultimatumni qaytarib olishga qarshilik qildilar. Muxtoriyat xukumati a'zolari o'rtasida o'zaro ixtilof kelib chiqdi. "Ualamo" jamiyati tashabbusi bilan Muxtoriyatda to'ntarish yuz berdi. Mustafo Cho'qay o'g'li boshchiligidagi hukumat mahkamasi ag'darildi va xukumat boshqaruvi Qo'qon shahar militsiyasi boshlig'i Kichik Ergashga o'tadi. 18 fevraldan 19 fevralga o'tar kechasi Toshkentdan o'lka harbiy komissari Ye. Perfilyev boshchiligidagi zambaraklar bilan qurollangan qo'shin yetib keldi. Perfilyev shaharni uch tarafдан o'rab olib, 19 fevral kuni ertalab Ergashga talabnomasi yo'lladi. Ergash uning talablarini bajarishdan bosh tortgach, Perfilyev Qo'qon shahrini 12 zambarakdan o'qqa tutdi. Kunduz soat 13 da boshlangan o'q yomg'iri shomgacha shaharni vayronaga aylantirdi.⁸ Ammo shunga qaramay, muxtoriyatchilar taslim bo'lmay, har bir binoni, har bir do'konni, har bir karvonsaroyni mardlarcha himoya qildilar. Ertasi kuni -20 fevral tongida vayron etilgan shaharga piyoda qo'shinlar va dashnoqlarning jangovar qismlari kirdi. Qo'qon o't ichida qoldi. Qo'qondagi xunrezliklar, qatog'on dahshatlarini amalga oshirganlarning o'zлari ham e'tirof etganlar. O'lka harbiy komissari Ye. Perfilyev jang tafsilotlarini shunday hikoya qildi. «Machitlarni yana bir necha marotaba to'pdan o'qqa tutishga to'g'ri keldi, qizil gvardiyachilar bo'g'izlangan Yevropaliklarning jasadlarini ko'rganda shunday tutaqib ketdilarki, ularni hech

⁶ A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent.: "Ma'naviyat", 2000. –B.146.

⁷ A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent.: "Ma'naviyat", 2000. –B.148.

⁸ O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchini kitob.....-B.66

qanday kuch to‘xtatib qololmasdi, askarlar oldidan chiqqan hamma narsani yakson qilib ketaverdilar. Hatto shunday holat ro‘y berdiki 5 ta qizil gvardiyachi yerli banditlarning 200 tasini oldiga solib quvladi. Otryad katta qahromonlik ko‘rsatdi. Jang ishtirokchilari orasida birorta ham qo‘rqog‘i yo‘q edi. Biz qiyinchilik bilan Toshko‘prikni qo‘lga kiritdik va Eski shaharga yorib kirdik. Isyonchilar to‘dasi Skobelev tomonga chekinishdi. Badavlat kishilar qimmatbaho boyliklarini, pullarini o‘zлari bilan olib qochdilar, lekin narsalari o‘zлariga nasib etmadni. qochayotganlarni tezotar to‘pdan o‘q uzib yanchib tashladik, bir qismini esa orqaga chekinishga majbur etdik. Ularning ko‘rpa-yostiqlari, gilamlari, qimmatbaho narsalari yo‘lda sochilib qoldi.»

Qo‘qonda dahshatli fojealar va qirg‘inlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va uning shaxsan ishtirokchisi M.K.Shkorupaning iqrori ayniqsa diqqatga loyiqdir: «Tinch aholining uylari, Turkiston Rossiya uchun ham tansiq bo‘lib qolgan manfakturna, g‘alla omborlari yonardi. Qo‘qon uch kun o‘t ichida qoldi». «O‘scha kunlarda,-deb yozadi tarixshunos Shomagdiyev Sh.A.,-talochiliklar ham avj olgan. Askar, qizil gvardiyachilarga bo‘ysinmay qolgan olomon, mayda burjuaziya nima bo‘lsa shuni talab, toshib keta boshladi. Eski shahar va barcha do‘konlar tijorat firmalari, savdo qatorlari, banklar, mayda xonodonlar talon-toroj qilindi. Tolonchilar talagan mulkclarini aravaga ortib, vokzal va qa’laga tashidilar. U yerda begona mulkni bo‘lib olish boshlandi».⁹

Sovet xukumatining Turkiston muxtoriyatini qonga bostirish uchun dashnoqlar otryadidan foydalanishi Qo‘qonda xaddan tashqari xunrezliklarni oshirib yubordi. Dashnoqlar – 1890-yilda Tiflisda tuzilgan “Dashnoqsutyun” (“Ittifoq”) arman milliy inqilobiy partiyasi a’zosi. Dashnoqlar 1915-yildagi turk-arman qirg‘inidan qochib, Turkistondan panoh topgan edilar.¹⁰ Birinchi navbatda, ma’lumki, shaharlik beva-bechoralarga, shuningdek, Qo‘qondagi behisob hunarmand va mayda savdogarlarga shikast yetkazildi.¹¹ Qo‘qon uch kun ma’shala bo‘lib yondi. Uylar, gazlama omborlari, non do‘konlari kuyib kul bo‘ldi. Eski shaharning uchdan biri to‘liq vayron etildi. qo‘qonda dahshatli manzara hosil bo‘ldi. Hamma yoqda o‘liklar uyimi. Ularning bir qismi kuyib ketgan¹². Ingliz ayg‘oqchisi mayor Blekker ma’lumotiga qaraganda portlovchi moddalar va to‘plar yordamida qilingan hujum paytida shahar butunlay vayron etilgan, o‘scha kunning o‘zida 3000 ga yaqin odam o‘lgan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, shu fojeali qirg‘in oqibatida 10000 dan ziyod kishi halok bo‘lgan.

⁹ R. Shamsutdinov., SH Karimov. Vatan tarixi. (O‘zbekiston sovet mustamlakachilik davrida). Uchunchi kitob. “Sharq” Toshkent-2010.

¹⁰ 4. Madyarova S. Turkiston Muxtoriyati milliy armiyasi masalasini o‘rganilishiga doir// O‘zbekiston tarixi, 2006.

¹¹ A’zamxo’jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent.: ”Ma’naviyat“, 2000. –B.148.

¹² R. Shamsutdinov., SH Karimov. Vatan tarixi. (O‘zbekiston sovet mustamlakachilik davrida). Uchunchi kitob. “Sharq” Toshkent-2010.

Uning yozishicha, shaharni bosib olishda ishtirok etgan nemis, avstriyalik, vengr asirlaridan yonlangan soldatlar 100000 so‘mdan ortiq pulni o‘marishgan¹³.

Ayniqsa, armani millatiga mansub dashnoqlar Qo‘qon shahrida mudxish vahshiyliklarni amalga oshirdilar. Qo‘qonda amalga oshirilgan ommaviy qatog‘onlarning qatnashchilaridan yana biri A.T. Karavaysev o‘z esdaliklarida bunday yozadi: «Konovalov to‘dasidagi arman dashnoqlari o‘zboshimchalikni haddan oshirib yubordilar. Ular Qo‘qonga kelguncha tinch aholini talab, qirg‘in qilgan»lar. Sovet hukumati qo‘sishlari eski shaharni, ayniqsa savdo tarmoqlarini, do‘konlar, rastalarni, omborlarni taladilar, qolganlariga o‘t qo‘yib yondirib yubordilar. Dashnoqi armanlar musulmonlar yashaydigan xonodonlarga bostirib kirdilar, hech kimni ayamasdan qirg‘in qildilar, hatto qariyalar va yosh go‘daklarga ham rahm qilmadilar. Ibodotxonalar, masjid va madrasalarni vayron qildilar. Hamma yerda qamoqqa olishlar boshlandi. Bunda «Muvaqqat hukumatiga biron-bir aloqasi borlarni qamoqqa olishdi va qa’laga jo‘natishdi. Order (ruxsatnoma) bilan va ordersiz qamoqqa olishdi. Ko‘pgina qamoqqa olishlar «o‘zboshimchalik» deb tan olindi.

Ayrim qamoqqa olinganlarni suv va tergovsiz otib tashlandi». 1918 yil 20-fevralda Turkiston muxtoriyati ag‘darilgach Turkiston muxtoriyati xukumati tarkibida bo‘lgan 54 a’zolaridan 30 kishi xibsga olinib sud qilindi. Qolganlari esa yashirinadi. Bir qismi xorijga qochadi, boshqalari esa yashirin faoliyatga o‘tib, sovet xukumatiga qarshi kurashning yashirin formasini tanlaydi. Turkiston muxtoriyatini ag‘darish jarayonida Qo‘qon o‘t ichida qoldi. Qo‘qon shahridagi pochta 1000dan ortiq magazin va do‘konlar yonib kul bo‘ldi. 1500dan ortiq axolining uylari yonib ko‘chada qolishdi. Qo‘qonni tashlab ketishga majbur bo‘lgan Muxtor hukumatning a’zolari Farg‘ona shahriga borib xalqni namoyishga chorladilar. Ularni tub yerli mahalliy aholi qo‘llab-quvvatladi. Lekin sovet hukumati bu xarakatni ham qatag‘on mashinasi qizil armiya yordamida qonga botirib bostirdi. Muxtor hukumat a’zolaridan Xidoyatbek O‘ayev, Mirodil Mirzaahmedov qatl etilgan.¹⁴ Nosirxon To‘ra Namanganda, S.Gersfeld Samarqandda, Obidjon Mahmudov Buxoroda qo‘lga olingan. Ularni turli yillarga ozodlikdan maxrum etdilar.¹⁵ Ubaydulla Xo‘jayev, Abdulhamid Sulaymon (Cho‘lpon) Qo‘qondagi fojeaviy qirg‘inlarni Ashxaboddan Samarqandga kelayotganlarida yo‘lda eshitdilar va ular o‘z yo‘llarini o‘zgartirib Orenburg tomon yo‘l oldilar. Bu yerda ular Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on bilan uchrashdilar. U Orenburgda Boshqirdiston muhtoriyatining ichki va harbiy ishlari bilan band edi.¹⁶ Sovet xukumati Turkiston muxtoriyatini tugatish bahonasida o‘lka xalqlarini qirg‘in qilish, daxshatli qatag‘onlarni boshlab yubordi. Faqat Qo‘qonning o‘zida uch kun davomida 10 ming

¹³ Alimova D, Karimov H “O‘zbekiston tarixi” T.: “Sharq”. 2000

¹⁴ O‘zR MDA, R-615-fond, 1-ro‘yxat, 97-delo, 75-varaq.

¹⁵ Cho‘qayev M. Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari) T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyoti matbaa birlashmasi, 1992.-B.49.

¹⁶ Zakiy Validiy. Xotiralar. «Sharq yulduzi», 1993 yil 7-8 son, 165-166 betlar.

kishi o'ldirildi. Ular Qo'qon fojialari bahonasida butun Farg'onan vodiysini vayron qilib, kultepaga aylantirmoqchi bo'ldilar. Bu yo'l bilan sovet xukumati mahalliy aholini qo'rqtib umuman bosh ko'tara olmaydigan qilib qo'ymoqchi bo'ldilar. Ana shu dahshatli qirg'in paytida Marg'ilon shahrida 1000, Andijon shahrida 6000, Namangan shahrida 2000 Bozorqo'rg'on va Qo'qonqishloq atroflarida 4500 turkistonlik musulmonlar shahid bo'ldilar. Bu albatta o'lka xalqlarining mustamlakachi sovet hukumatiga nisbatan qahr-g'azabi va nafratining kuchayishiga sabab bo'ldi. Ushbu dahshatli voqealardan so'ng harbiylar Qo'qon shahrini tark etdilar. Soldatlar va qizil armiya «o'zlari bilan vagonlarda talangan milliy boyliklar va ko'plab vagonda asirlarni» olib ketdilar.

Turkiston muxtoriyati xukumati a'zolarini va ularni tarafdarlarini ta'qib etish, ularni qatag'on domiga tortish siyosati sovet hokimiyati tomonidan bir zum bo'lsa-da to'xtatilmadi. Aksincha keyinroq bo'lsa-da ular butunlay jismonan yo'q qilib tashlandi. Muxtoriyat uchun jonini berib kurashgan ziyorilar, taraqqiyatparvarlar qatag'on qurbanlari bo'ldilar. Natijada butun Turkiston xalqlari istiqlol uchun, erk va milliy ozodlik uchun kurashga otlandilar.

Turkiston muxtoriyati millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash masalasini demokratik yo'l bilan xal etishga bel bog'lagan xalq va uning ilg'or ziyorilari zakovati va irodasi zaminida vujudga kelgan edi. Turkiston Muxtoriyati xukumatining ag'darilishi turkistonliklarni bolsheviklar rejimiga qarshi o'z ona Vatanlarini himoya qilish uchun qo'llariga qurol olishga majbur etdi. Bu qurolli harakatning mohiyati milliy ozodlik an'analarining davomi bo'lib, istiqlol uchun kurash edi. Bu bilan Turkistonda ommaviy antisovet harakati boshlandi. Milliy ozodlik kurashi an'analarini o'zida namoyon etgan istiqlolchilik harakatining xususiyati o'sha davrdagi «Turkistonning Rossiyadan ozodligi uchun!», «Zolimlarsiz Turkiston uchun!», «Turkiston-turkistonliklar uchun!» kabi siyosiy talablarida yorqin namoyon bo'ldi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent.: "Ma'naviyat", 2000.
2. Jo'rayev M., Nurullin R. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida 2 kitob T:- "Sharq", 2000
3. Cho'qayev M. Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari) T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyoti matbaa birlashmasi, 1992
4. Zakiy Validiy. Xotiralar. «Sharq yulduzi», 1993 yil 7-8 son,
5. Madyarova S. Turkiston Muxtoriyati milliy armiyasi masalasini o'rganilishiga doir// O'zbekiston tarixi, 2006.